

CHO'L HUDUDLARDA DEGREDATSIYA JARAYONLARI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI

J. Raximov

dotsent Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsenti? q/x.f.n

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining taqirsimon tuproqlar sharoitida degredatsiya va unga qarshi kurashda g‘o‘za, oq jo‘xori va kungaboqar orqali amalga oshirilib, chigit bilan oq jo‘xori, kungaboqar urug‘i (kulis) hosil qilish bo‘yicha agrotadbirlar amalga oshirilish natijasida g‘o‘zani shamol eroziyasiga qarshi oq jo‘xori va kungaboqardan qilingan to‘sialar (kulislari) yerning 1800 m^2 ni kulislari, 8200 m^2 ni g‘o‘za egallashi, har ikkala dalada ham nazorat variantiga nisbatan g‘o‘za hosildorligi 4,7 dan 6,3 s/gacha oshganligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: taqirsimon tuproqlar, degredatsiya, oq jo‘xori va kungaboqar, chigit bilan oq jo‘xori, shamol eroziyasi, nazorat, g‘o‘za hosildorligi.

ABSTRACT

In article described the growth of yield capacity of cotton-plant from 4,7 to 6,3 metric centner on two different crop areas in comparison with observed crop area in Kashkadarya region in conditions of wind erosion of bare soil and keeping control of protection of cotton-plant, through maize and sunflower seeds, as a result of such agricultural actions by creating scene of 1800m^2 area maize and sunflower seeds, sustainably protecting cotton-plant from wind erosion on 8200 m^2 area.

Key words: described, of cotton-plant from, region, erosion, sunflower seeds, agricultural actions, wind erosion of bare soil, result of such,

АННОТАЦИЯ

В статье приведено повышение урожайности хлопчатника от 4,7 до 6,3 ц/га в двух вариантах посевных площадей в сравнении с контролем, в условиях ветровой эрозии почв Кашкадарьинской области и защиты хлопчатника, посевами сорго и подсолнечника, в виде кулис из белой кукурузы и подсолнечника, устойчиво предохраняющие хлопчатник от ветровой эрозии площадью 8200 m^2 , кулисами сорго и подсолнечника площадью 1800m^2 .

Ключевые слова: повышение урожайности хлопчатника, двух вариантах, посевных площадей, ветровой эрозии, почва, защиты хлопчатника, кулис, белой кукурузы.

Respublikamizning Markaziy Farg‘ona, Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlarining Qizilqumga chegaradosh yerlari, Buxoro, Xorazm viloyati, Qoraqolpog‘iston Respublikasi ekinzorlari shamol eroziyaside qisman zarar ko‘radigan mintaqalardan hisoblanadi. Shuhududlarda ayrim yillari qishloq xo‘jalik ekinlari, ayniqsa chigit kuchli chang-bo‘ronlar va shamol eroziyasi(deflyatsiya) natijasida qayta-qayta ekiladi, buning hisobiga hosil pishib yetishi kechikadi, hosildorlikni pasayib ketishiga olib keladi.

Ushbu jarayonlar hisobga olinib Paxta seleksiyasi urug‘chiligi yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti tomonidan Respublikada shamol eroziyasingin qishloq xo‘jaligiga zarari aniqlangan va unga qarshi kurash choralar ishlab chiqilgan. Bahorda shamol eroziyasiga qarshi kurash choralaridan chigit va boshqa ekinlarni tezligi kuchli shamollar tomoniga ko‘ndalang qilib, egat olib ekish, tezligi kuchli (>15 m/s) hududlarda, qumli va yengil qumoq tuproqlarda har-bir 150-170 m, o‘rta qumoq hududlarda 200 m va og‘ir qumoqli tuproqlarda 250-300 m; tezligi o‘rtacha mexanik tarkibiga mos 200 m; 250-300 m va 350-400 m; shamol tezligi past bo‘lgan hududlarda tuproqning mexanik tarkibidan qat’iy nazar ular oralig‘ini 400-450 metr qilib belgilash talab etilgan. Kuchli shamollar esadigan hududlarda ihota o‘rmonzorlari 3-4 qatorli, o‘rtacha esadigan hududlarda 2-3 qatorli, tezligi past bo‘lgan yerlarda 2 qatorli qilib ekish tavsiya etiladi. Ihotazorlar asosan tut, terak, tol, qayrag‘och va O‘zbekistonda baland o‘suvchi daraxtlardan tashkil topilishi kerak. Keyingi yillar barpo qilingan ihotazorlarning ko‘pi kesilib ketdi, shamol eroziyasi yana kuchayib bormoqda, ularni o‘rnini to‘ldirish talab etiladi. Shamol eroziyasi dunyodagi sahro va yarim sahro zonalarining hamma hududlarida ro‘y beradi va bu holat O‘zbekiston uchun ham mustasno emas. Degredatsiya (shamol eroziyasi) uchoqlaridan biri Qashqadaryo vohasining g‘arbiy hududlarida hosil bo‘lgan sahro va yarim sahro tuproqlaridir.

Vohada joylashgan meteostansiya ma’lumotlariga qaraganda, Qarshida bir yil mobaynida 15,7; Qamashida-30,9; G‘uzorda-16; Muborakda-13,8 marta chang bo‘ronlari kuzatiladi va bu chang bo‘ronlari deflyatsiya jarayonlarni keltirib chiqarib, tuproq va unda o‘sayotgan ekinlarga jiddiy zarar keltiradi. Vohada joylashgan meteostansiyalar va shaxsiy marshrut tekshirishlari asosida vohani 3 guruhsiga bo‘lish mumkin:

I-guruhsiga bo‘lgan jarayonlaridan kam zarar ko‘radi va bu guruhsiga Kitob, Shahrisabz, Yakkabog‘, Dehqonobod, Chiroqchi tumanlari kiradi. Ko‘rsatilgan tuman hududlarida asosan tipik, to‘q tusli bo‘z, o‘tloqi allyuvial, tog‘ jigarrang tuproqlari rivojlangan bo‘lib, sug‘orma dehqonchilik asosan bo‘z va o‘tloqi allyuvial tuproqlarda amalga oshiriladi;

II-guruh-tuproq va ekin shamol eroziyasidan o‘rtacha zarar ko‘radi. Bu guruhda G‘uzor, Qarshi, Nishon (vohaning o‘rta g‘arbida) joylashgan tumanlardir, bu yerlarda och tusli bo‘z tuproqlari rivojlangan bo‘lib, sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanishadi;

III-guruh-tuproq va ekinlar shamol eroziyasidan kuchli zarar ko‘radi.

Muborak, Mirishkor, Koson, qisman Kasbi tumanlari joylashgan hududda asosan taqirsimon, taqir, sur tusli qo‘ng‘ir, sahro qumloq tuproqlari tarqalgan bo‘lib, dehqonchilik asosan taqirsimon va sur tusli qo‘ng‘ir, juda kam sahro qumloq tuproqlarida olib boriladi. Birinchi guruhga mansub introzonal tuproqlar (o‘tloqi allyuvial) hududda deflyatsiya jarayonlari kuchsiz, ikkinchi guruhda o‘rtacha va uchinchi guruhda kuchli ro‘y beradi va shuning uchun deflyatsiya jarayonlariga qarshi kurash choralari ikkinchi, ayniqsa uchinchi guruh hududlariga qaratilgan bo‘lishi kerak. Degredatsiya jarayonlariga qarshi kurash tajribalari uchinchi guruhda, Koson tumanida joylashgan sug‘oriladigan taqirsimon tuproqlarda olib borildi. Tajriba olib borish uslublari va sharoitidan kelib chiqib, shamol eroziyasiga qarshi kurashda g‘o‘za, oq jo‘xori va kungaboqar orqali amalga oshirildi, chigit bilan oq jo‘xori, kungaboqar urug‘i (kulis) hosil qilishi uchun bir muddatda ekildi. Kulis (to‘siq) g‘o‘za o‘sib turgan dalada, tezligi kuchli (>15m/sek) shamollar esish tomoniga ko‘ndalang qilib ekildi.

Variantlar quyidagicha joylashtirildi:

1. G‘o‘za ekilgan dalaning kengligi 14 m, oq jo‘xori 3,6 m;
2. G‘o‘za ekilgan dalaning kengligi 18 m, oq jo‘xori 3,6 m;
3. G‘o‘za ekilgan dalaning kengligi 21,6 m, oq jo‘xori 3,6 m;
4. Nazorat shamoldan to‘silmagan yer.

Har-bir variantning uzunligi 100 m. G‘o‘zani kungaboqar bilan to‘silgan tajriba variantlari oq jo‘xoridan qilingan to‘siqqa (kulisga) o‘xshagan. Tajribada umumiy g‘o‘za tarbiyasiga qabul qilingan agrotexnologiya qo‘llanildi. Respublikada jo‘xorining “Qand jo‘xori”, “O‘zbekiston pakanasi” “Sangzor”, “Tashkentskoye beyuzernoye”, “O‘zbekiston-5”, “O‘zbekiston-18” va “Shirin” navlari tarqalgan. Bizning tajribamizda baland poyali “O‘zbekiston-18” jo‘xori navi ekilgan, uning bo‘yi 3,5 metrgacha o‘sadi. G‘o‘zaning “Buxoro-6” navi aprel boshida ekildi, g‘o‘za bilan to‘siq sifatida ekilgan ekinlar 200 kg/ga azot, 170 kg/ga fosfor va 100 kg/ga kaliy bilan oziqlantirildi. Fosforning 70 foizi, kaliyning 50 foizi kuzgi shudgor ostiga, qolganlari g‘o‘za gullash atrofida, azot g‘o‘zada 3-4 ta chin barg chiqarganda, ayni shonalash va gulga kirib, endi ko‘sak hosil bo‘lish paytida berildi. G‘o‘za to‘siq sifatida ekinlar bilan birga 3 marta, gektar hisobida 800-1200 m³ suv bilan sug‘orilib, qator oralig‘i 4-5 marta kultivatsiya bilan 15-16 sm chuqurlikda yumshatildi, 2 marta begona o‘tga qarshi chopiq o‘tkazildi. O‘simlikning o‘sish, rivojlanishida tuproq unumdorligining ahamiyati kattaligi ma’lum. Bu xildagi deflyatsiyaga chalingan tuproqlarda kalsiy va

magniy elementlari ko‘p bo‘lganligi sababli, qo‘llanilgan fosfor o‘g‘itidagi fosfor yuqorida ko‘rsatilgan elementlar bilan birikib, retrogradatsiyaga aylanib, o‘simplik o‘zlashtiradigan xilini kamaytirishga sabab bo‘ladi. Bu xildagi fosforni o‘simplik o‘zlashtiradigan xilga aylantirish uchun tuproqda gumus ko‘p bo‘lishi kerak va buning uchun organik o‘g‘it qo‘llash yoki g‘o‘za-beda almashlab ekish tizimini qo‘llash talab etiladi.

Kungaboqar bilan g‘o‘za ekilgan yerdagi ozuqa elementlari jo‘xori ekilgan dala tuproqlari oziq miqdoriga yaqin bo‘ldi. Ikkala dalaning sho‘rlanish darajasi xlor ioni bo‘yicha sho‘rlanmagan (0,001-0,02%), quruq qoldiq bo‘yicha esa kuchsiz (1,142-1,292) sho‘rlangan tuproqlar toifasiga kiradi.

XULOSA

Qashqadaryo vohasida degredatsiya (shamol eroziyasiga)ga qarshi loyihalar tuzilayotganda, asosan birinchi va ikkinchi guruh tuproqlarga e’tibor qaratilishi lozim. Taqirsimon tuproqlar sharoitida g‘o‘zani shamol eroziyasiga qarshi oq jo‘xori va kungaboqardan qilingan to‘siqlar (kulislardan) yerning 1800 m^2 ni kulislardan, 8200 m^2 ni g‘o‘za egallashi kerak, ikkala dalada ham nazoratdagiga nisbatan g‘o‘za hosili 4,7 dan 6,3 s/gacha yuqori bo‘lishi aniqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mirzajonov Q.M. Shamol eroziyasasi va unga qarshi kurash choralar. Toshkent “O‘zbekiston”- 1967., 25 bet.
2. Балашова Е.Н., Житомирская О.М., Семёнова О.А. Климатическое описание Республики Средней Азии. - Ленинград. Гидрометеоиздат.- 1960. 22-33с.
3. Mirzajonov Q.M., Nurmatov SH., Isayev S.-Eroziyaga uchragan tuproqlarda azotli o‘g‘itlar samara- dorligi // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi.-Toshkent, 2011,- № 6.- 32-33 b.
4. Mirzajonov Q.M., Nurmatov SH.N., Tuproqni yuvilish jarayonlari va uni aniqlaydigan faktorlar // O‘zbekiston agrar fani habarnomasi.-Toshkent.- 2008.- № 4.- 59-62 b.
5. Rahmonov D. Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida irrigatsiya eroziyasini oldini olish. // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. Toshkent- 2010. № 4,. 27b.